Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 821.512.133
FILOLOGIYA

ULUG'BEK HAMDAMNING "OTA" ROMANIDA OTA XARAKTERINING BADIIY IFODASI

Gulnoz Iskandarovna Xalliyeva[a,*], Barchinoy Bahodir qizi Bahronova[b]

[a] *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Jahon adabiyoti kafedrasi mudiri filologiya fanlari doktori, professor*
[b] *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti Ingliz adabiyoti yo'nalishi 1-bosqich magistranti*
✉ gulnoz7410@mail.ru

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani asosida ota obrazining badiiy hamda psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Asarda Po'lat obrazi orqali ota timsolining murakkab xarakteri, uning mehribonlik va fidoiylik kabi ijobiy jihatlari hamda ichki ruhiy ziddiyatlar natijasida yuzaga kelgan fojeali taqdiri yoritib beriladi. Maqolada ota timsolining o'zbek adabiyotidagi an'anaviy va zamonaviy talqini hamda uning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar

ota obrazi, roman, zamonaviy o'zbek adabiyoti, badiiy talqin, poetika, psixologik tahlil.

DOI: 10.5281/zenodo.21743804

KIRISH

O'zbek adabiyotida ota obrazi umuminsoniy, milliy hamda tarixiy qadriyatlarni o'zida mujassam etgan holda, oilaning tayanchi va axloqiy yetakchisi sifatida namoyon bo'ladi. Taniqli o'zbek yozuvchisi Ulug'bek Hamdamning "Ota" romani milliy romanchiligimizda folklor asarlaridan tortib klassik va zamonaviy davrlargacha davom etib kelayotgan ota obrazining badiiy talqinini yangi bosqichga olib chiqdi. Chunki ushbu asardagi ota, ya'ni Po'lat obrazi davrning ijtimoiy o'zgarishlari bilan bir qatorda o'zbek otalariga xos fazilatlarni o'zida jamlagan murakkab qahramon sifatida tasvirlangan.

Romanda ota obrazi orqali vijdon, oila, jamiyat o'rtasidagi murakkab insoniy munosabatlar badiiy tarzda yoritilgan. Asardagi ota obrazining poetik xususiyatlarini o'rganish, yozuvchining badiiy mahorati va ushbu obrazning zamonaviy o'zbek adabiyotidagi talqinlari xususida muayyan xulosalarga kelishga yozrdam beradi.

ASOSIY QISM

"Ota" romanida badiiy tasvir etilgan voqealar Andijon shahrida kechadi. Ushbu asarda asosan ikki ota obrazi tasvirlangan bo'lib, biri bosh qahramon Po'lat, ikkinchisi esa uning otasi O'tkir aka hisoblanadi.

O'tkir aka o'zbek erkaklariga xos qat'iyat, kuch va vijdonlilik fazilatlariga ega bo'lgan obraz sifatida gavdalantiriladi. Buni asardan olingan quyidagi parcha tasdiqlaydi: *"Ammo O'tkir aka o'tkir edi: xotinining so'zini bo'lmasdan yaxshilab eshitar, ustiga-ustak, "xo'p, xo'p" derdi-yu, deyarli hamma aytganlarining teskarisini qilardi. Uning o'tkirligi ham aynan shunda edi"* [Hamdam, 2020].

Romanning bosh qahramoni Po'lat muallif tomonidan realistik rasvir imkoniyatlaridan foydalanilgan holda badiiy talqin etilgan bo'lib, sar voqealari davomida psixologik jihatdan ham asoslab borilgan. Jumladan, asardan olingan quyidagi parchaga diqqat qilaylik: *"…Oychechak opa, yoniga erini, o'n besh yildan beri tirnoqqa zor o'g'li Po'lat-u husnda tengsiz go'zal kelini Yog'duni olib, qanisan Toshkent-boshkent dedi-yu, yo'lga chiqdi. Po'latni ko'ndirish oson bo'lmadi, lekin." [Hamdam, 2020].* Bunda qahramonning qancha-

lik o‘z fikriga ega, qat’iy qarorli va mustaqil inson ekanligi ko‘rinib turadi. Mazkur izhlar Po‘latning turli “kuf-suf”larga tobi yo‘qligi, ya’ni ortiqcha harakatlar va tashqi ta’sirlarga berilmasligi, uning eng avvalo, ichki prinsiplariga sodiq shaxs ekanligini anglatadi. Shu bilan birga, onasi tomonidan kelini orqali ta’sir o‘tkazilishi qahramonning oilaviy muhitdagi o‘rnini va munosabatlar tizimidagi rolini ham ochib beradi. Muallif Po‘latni oddiy inson sifatida hayotiy va ishonarli tarzda tasvirlaydi.

Asarda ota obrazi faqat individual qahramon sifatida emas, balki kengroq ma’noda oila tayanchi va ma’naviy qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan shaxs sifatida ham talqin etiladi. Po‘lat o‘zining qat’iyligi, vijdonliligi va mas’uliyati orqali nafaqat oilasining boshlig‘i, balki uning ma’naviy ustuni sifatida namoyon bo‘ladi.

Po‘lat ota obrazi sifatida asarda murakkab sifatlarga ega inson qilib ifoda etilgan. Chunki unda bir vaqtning o‘zida ham ijobiy xislatlar ya’ni mehribon ota timsoli, ham salbiy, qahrli va fojiali ota xarakterining uyg‘unlashganini ko’rish mumkin.

1. Po‘lat fidoiy ota sifatida.

Eng avvalo, Po‘lat o‘z farzandiga nisbatan mehrli ota qiyofasida tasvirlangan. U qizi Sevinch bilan munosabatlarida oilaviy bog‘liqlik, mehr-oqibat, yaqinlik va ijobiy muloqot muhitini shakllantirish hamda uni saqlashga harakat qiladi. Ayni vaqtda, qizining ruhiy holatini tushunishga ham intiladi. Asardan olingan ushbu parchada ham bu holat yaqqol aks etgan: *“Po‘lat o‘rtadagi buzilayotgan ko‘prikni qayta ta’mir qilmasa, bolalarga emas, balki Sevinchga juda qiyin bo‘lishini sezib turardi”* [Hamdam, 2020]. Bu orqali qahramon oiladagi muvozanatni saqlashga urinayotgan, mas’uliyatli ota ekanligi ma’lum bo‘ladi. Shuningdek, u qizi bilan jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarni yaxshilash uchun atrofdagi bolalar bilan ham yaqinlik o‘rnatishga harakat qiladi, ularni yarashtiradi va hammasiga mehr ko‘rsatib, hatto ularga muzqaymoq olib beradi. U farzandining taqdiriga befarq bo‘lmagan, fidoiy hamda mehribon ota obrazini o‘zida aks ettiradi. O‘zi o‘t o‘chiruvchi bo‘la turib, qizining yuzi kuyib qolganligi uni qattiq ranjitadi hamda ota sifatida Po‘lat farzandining kelajagi haqida tashvishlanib, u bilan baravar iztirob chekadi.

2. Po‘lat fojeali ota sifatida

Po‘lat obrazini tahlil qilishda uning faqatgina ijobiy jihatlarini emas, balki ichki ruhiy ziddiyatlari va fojeali qarorlar orqali ochiladigan xarakterini ham e’tiborga olish muhimdir. Asarda qizining og‘ir taqdiri Po‘lat ruhiyatiga kuchli psixologik bosim bo‘lib ta’sir qiladi va bu holat uning ichki muvozanatini izdan chiqaradi. Misol qilib asarda keltirilgan tush orqali, uning achchiq va ayanchli taqdirining bashoratini aytish mumkin. Chunki unda o‘zbek otalariga xos bo‘lgan or-nomus, vijdon, qat’iyat va mag‘rurlik bor edi.

Ayniqsa, qizining hayoti bilan bog‘liq so‘nggi voqealar, ya’ni uni o‘ldirishi, uning ruhiy holatida keskin burilish yuzaga kelganligini ko‘rsatadi. Bu harakat bir zumlik jahl natijasi bo‘libgina qolmay, balki uzoq davom etgan ichki iztiroblar, ruhiy bosim va jamiyat ta’siri ostida shakllangan holatning yakuniy nuqtasi sifatida sodir bo‘lganligi ko‘rinadi. Bundan tashqari, qahramonning urush ko‘rganligi ham uning psixologiyasiga ta’sir ko‘rsatgan omillardan biri sifatida talqin qilinishi mumkin. Urushda shakllangan qat’iyat va keskin qaror qabul qilish odati uning keyingi hayotiy tanlovlarida ham seziladi. Shuningdek, uning yaqin insonlar bilan munosabatlaridagi ham uning asar so‘ngidagi murakkab ruhiy holatini yanada chuqurlashtiradi.

Po‘latning qizini pichoqlab o‘ldirishi, bu qarorning jahl ustida sodir bo‘lishi, shuningdek, u xotinining janozasiga ham bormasligi kabi holatlar qahramonning ichki iztiroblari va ruhiy buzilish jarayonini yanada yaqqol ko‘rsatadi. Shu bois, qanchalik mehribon va jafokash bo‘lmasin, Po‘lat ichki ziddiyatlar, ruhiy bosim va fojeali qarorlar natijasida fojiali ota timsoli sifatida namoyon bo‘ladi.

”Ota... – lablaridan uchdi so'z. Qiz bola uchun dunyodagi eng qutlug', eng baland, eng aziz so'z bo'lsa, ajabmas!... Va shu so'z uning so'nggi so'zi bo'ldi. Ehtimol, go'dakligidagi – endi tili chiqayotganda aytgan ilk so'zi ham shu edi: ota!” [Hamdam.2020]

Ushbu parcha orqali Ulug‘bek Hamdam ota obrazining eng ta’sirli va chuqur ma’naviy-psixologik jihatlarini ochib beradi. “Ota…” so‘zining takrorlanishi va uning qahramon hayotidagi eng ilk va eng so‘nggi so‘z sifatida berilishi ota obrazining inson hayotidagi beqiyos o‘rnini, uning ruhiy va hissiy ahamiyatini kuchli badiiy ifoda bilan ko‘rsatadi. Muallif bu orqali ota nafaqat oilaning tayanchi, balki inson hayotining boshlanishi va

ma’naviy ildizi ekanini ta’kidlaydi. Parchada “ota” so‘zining muqaddaslik darajasiga ko‘tarilishi, uning qahramon taqdirida hal qiluvchi ramzga aylanishi asarning falsafiy qatlamini ham ochib beradi hamda uning asosiy g‘oyasini o‘zida mujassam etadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Ulug‘bek Hamdamning ”Ota romani” qahramonning ota sifatidagi chuqur psixologiyasi, shaxsiy qadriyatlari, hayotiy tanlovlari va qarorlarini realistik hamda zamonaviy uslubda ochib berilgan asar sifatida o‘zbek adabiyotida muhim ahamiyat kasb etgan hisoblanadi. Po‘lat obrazi orqali o‘zbek otalariga xos bo'lgan qat‘iylik, jiddiylik, o‘z hissiyotlari hamda qarorlarini pinhona tutish, hattoki og‘ir hayot sharoitlari va sinovlarga duch kelgan taqdirida ham bardoshli, matonatli va vijdonli inson qiyofasini namoyon etish qobiliyatlarini yaqqol aks ettirgan. Po‘lat o‘zini nafaqat oilaning tayanchi balki, farzand tarbiyasi uchun javobgar, qizining qiyinchiliklari, va yutuqlari uchun mas’ul shaxs deb hisoblab, o‘z burchini to‘laqonli bajarishga harakat qilgan va shunga yarasha fidoiylik, to‘g‘rilikni talab eta oladigan qahramon sifatida romanning mahorat bilan yaratilgan protogonistidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Hamdam U. Ota. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020.
2. Bahriddinova, D. (2024). “OTA” ROMANINING POETIK XUSUSIYATI. *Eurasian Journal of Technology and Innovation*, *2*(1 Part 3), 101-103. https://www.in-academy.uz/index.php/EJTI/article/view/25188
3. Toshmurodova Mahsuma Muhiddin qizi. “ULUG‘BEK HAMDAMNING ‘OTA’ ROMANIDAN O‘RGANGANLARIM. ”. *TADQIQOTLAR*, vol. 74, no. 1, Nov. 2025, pp. 84-89, https://doi.org/10.64941/fr89re70.
4. Xayitmetov, A. (2015). O‘zbek adabiyoti: An'analar va zamonaviylik. Toshkent: Sharq nashriyoti.